

KAMERAL SOLIQ TEKSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Bo'riqulov Manuchehr Xudoyatulloevich
Toshkent shahar soliq boshqarmasi kameral
soliq tekshiruvlari bo'limi davlat soliq bosh inspektori

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjeti daromadlarini barqaror shakllantirish va soliq intizomini mustahkamlash davlat soliq organlari oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani samarali amalga oshirishda soliq nazoratining zamonaviy shakllaridan biri bo'lgan kameral soliq tekshiruvi alohida ahamiyat kasb etadi. Kameral soliq tekshiruvi soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini uning joylashgan manziliga chiqmagan holda, soliq organlari axborot tizimlarida mavjud ma'lumotlar, elektron soliq hisobotlari, elektron hisobvara-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, virtual kassalar hamda boshqa davlat organlarining axborot bazalaridan olingan ma'lumotlar asosida tahlil qilishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv tekshiruv xarajatlarini kamaytirish, inson omilini qisqartirish, nazoratning shaffofligini ta'minlash hamda soliq xavflarini tezkor aniqlash imkonini bermoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq ma'murchiligini tubdan isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kameral nazoratning samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, elektron hisobotlar tizimining keng joriy etilishi, elektron hisobvara-fakturalar almashinuvi, onlayn nazorat-kassa mashinalari va markirovkalash tizimining tatbiq etilishi natijasida soliq organlari katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada kameral tekshiruvlar endilikda faqat hisobotlarni tekshirish vositasi emas, balki soliq xavflarini aniqlash va profilaktika qilishning zamonaviy mexanizmiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan 2025-yil yanvar–iyun oylariga oid rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat bo'yicha 29,3 ming nafar soliq to'lovchida kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilgan, bu esa 549,9 ming faol soliq to'lovchining 5,3 foizini tashkil etgan. Mazkur tekshiruvlar davomida 19,1 trillion so'm miqdorida soliq tafovutlari aniqlangan. Aniqlangan tafovutlarning tarkibida 7,4 trillion so'm qo'shilgan qiymat solig'i, 6,7 trillion so'm foyda solig'i, 2,8 trillion so'm aksiz solig'i hamda 992,1 milliard so'm mol-mulk solig'i ulushiga to'g'ri kelgan. Ushbu ko'rsatkichlar kameral nazoratning davlat byudjeti daromadlarini oshirish va soliq intizomini mustahkamlashdagi muhim rolini yaqqol namoyon etadi.

Sohalar kesimida tahlil qilinganda, aniqlangan tafovutlarning eng katta qismi savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelib, 8,6 trillion so'mni tashkil etgan. Shuningdek, ishlab chiqarish sohasida 4,6 trillion so'm, qurilish

sohasida 2,1 trillion so'm va transport tarmog'ida 1,4 trillion so'm miqdoridagi tafovutlar aniqlangan. Mazkur ko'rsatkichlar aynan yuqori soliq xavfi mavjud bo'lgan tarmoqlarda kameral nazorat mexanizmi samarali ishlayotganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, amaliyot tahlili kameral tekshiruvlar tizimida ayrim muammolar ham mavjudligini ko'rsatmoqda. Avvalo, ayrim davlat organlarining axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya hali to'liq yakunlanmaganligi sababli ma'lumotlar almashinuvida uzilishlar kuzatilmoqda. Bundan tashqari, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan elektron hujjatlar noto'g'ri rasmiylashtirilishi yoki hisobotlarda texnik xatolarga yo'l qo'yilishi kameral tahlil natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Risklarni baholash mezonlari muntazam yangilanib borilayotgan bo'lsa-da, ayrim hollarda ularning iqtisodiyotdagi yangi biznes modellariga moslashuvi yetarli darajada tez amalga oshirilmayapti. Natijada ayrim halol soliq to'lovchilar ham qo'shimcha izoh berishga majbur bo'lishi mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda kameral soliq nazorati sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish (Machine Learning), Big Data texnologiyalari va avtomatlashtirilgan risklarni baholash tizimlari asosida tashkil etilmoqda. Bunday tizimlar millionlab operatsiyalarni bir vaqtning o'zida tahlil qilib, soliqdan bo'yin tovlash ehtimoli yuqori bo'lgan operatsiyalarni avtomatik aniqlaydi. Natijada tekshiruvlar soni emas, balki ularning aniqlik darajasi va samaradorligi ortadi. Shu bois O'zbekistonda ham kameral tekshiruvlarni yanada rivojlantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kameral soliq tekshiruvlarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchidan, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalariga asoslangan avtomatik risk-tahlil tizimlarini keng joriy etish zarur. Bu soliq xavflarini oldindan prognoz qilish hamda nazorat tadbirlarini yanada aniq rejalashtirish imkonini beradi. Ikkinchidan, banklar, bojxona organlari, kadastr, statistika va boshqa davlat axborot tizimlari bilan ma'lumot almashinuvini to'liq integratsiyalash lozim. Uchinchidan, elektron hisobvara-q-fakturalar, markirovkalash tizimi va onlayn nazorat-kassa mashinalaridan olinayotgan ma'lumotlar asosida avtomatik tahlil algoritmlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. To'rtinchidan, soliq to'lovchilarni aniqlangan tafovutlar haqida shaxsiy kabinet orqali real vaqt rejimida ogohlantirish va ularni mustaqil ravishda bartaraf etish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Bunday yondashuv nizolar sonini kamaytirish, ixtiyoriy soliq to'lovlarini ko'paytirish hamda davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kameral soliq tekshiruvlarining samaradorligi nafaqat aniqlangan soliq tafovutlari hajmi, balki ularning oldini olish darajasi bilan ham baholanadi. Zamonaviy soliq ma'murchiligi konsepsiyasida nazoratning asosiy maqsadi jazolash emas, balki soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy ravishda bajarilishini

ta'minlashdan iborat. Shu sababli bugungi kunda kameral tekshiruvlar profilaktik nazorat vositasi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soliq organlari elektron axborot tizimlari orqali aniqlangan nomuvofiqliklar yuzasidan soliq to'lovchilarga elektron ogohlantirishlar yuboradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni mustaqil ravishda bartaraf etish imkoniyatini yaratadi. Natijada ko'plab tafovutlar qo'shimcha sayyor tekshiruvlar o'tkazilmasdan turib bartaraf etilmoqda. Bu esa bir tomondan davlat organlari xarajatlarini kamaytirsa, ikkinchi tomondan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga ortiqcha aralashuvni cheklaydi.

Soliq ma'murchiligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda risklarni boshqarish modeli OECD tomonidan tavsiya etilgan tamoyillar asosida tashkil etilib, bunda soliq to'lovchilar faoliyati yuzlab mezonlar bo'yicha avtomatik baholanadi. Mazkur mezonlar moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi, kontragentlar bilan o'zaro hisob-kitoblar, qo'shilgan qiymat solig'i zanjirlari, eksport-import operatsiyalari, bank aylanmalari, elektron hisobvaraq-fakturalar, fiskal ma'lumotlar hamda boshqa axborot resurslari asosida shakllantiriladi. Risk darajasi yuqori bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlargina qo'shimcha nazorat tadbirlariga jalb qilinadi. Bunday yondashuv nazorat resurslaridan oqilona foydalanish hamda tekshiruvlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

O'zbekistonda ham risklarni avtomatlashtirilgan baholash tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Bugungi kunda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi natijasida katta hajmdagi ma'lumotlar shakllanmoqda. Elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron yuk xatlari, markirovkalash tizimi, bank to'lovlari va bojxona ma'lumotlarini yagona platformada integratsiyalash orqali soliq xavflarini ancha yuqori aniqlik bilan prognoz qilish mumkin. Bunday integratsiya nafaqat soliqdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, balki noqonuniy QQSni qaytarish, sun'iy ravishda zarar ko'rsatish, transfer narxlarini noto'g'ri qo'llash va soxta kontragentlardan foydalanish kabi murakkab sxemalarni ham aniqlash imkonini beradi.

Kameral tekshiruvlarning muhim yo'nalishlaridan yana biri qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini takomillashtirish hisoblanadi. QQS davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri bo'lganligi sababli ushbu soliq bo'yicha nazorat mexanizmlarini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Elektron hisobvaraq-fakturalar tizimi, tovarlarni raqamli markirovkalash, fiskal ma'lumotlar operatorlari va bojxona axborot bazalarini o'zaro bog'lash orqali QQS zanjirlarini avtomatik kuzatish imkoniyati kengaymoqda. Natijada "bir kunlik korxonalar" orqali amalga oshiriladigan noqonuniy operatsiyalarni aniqlash samaradorligi ortmoqda. Shuningdek, kameral tekshiruvlarning natijadorligi soliq organlari xodimlarining malakasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan

foydalanish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy modellashtirish va sun'iy intellekt asosidagi tahlil usullarini qo'llash yuqori malakali mutaxassislarini talab qiladi. Shu sababli soliq organlari xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish, ularni xalqaro standartlar asosida muntazam qayta tayyorlash hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish muhim vazifa hisoblanadi.

Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilish ham kameral tekshiruvlarni takomillashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Kameral nazorat jarayonida barcha harakatlar elektron shaklda qayd etilishi, qabul qilingan qarorlarning asoslari ochiq va tushunarli bo'lishi, soliq to'lovchilarga elektron platformalar orqali izoh berish va e'tiroz bildirish imkoniyati yaratilishi lozim. Mazkur mexanizmlar davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi hamda tadbirkorlarning soliq tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Kelgusida kameral soliq tekshiruvlarini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi alohida istiqbolga ega. Mashinaviy o'qitish algoritmlari millionlab xo'jalik operatsiyalarini tahlil qilib, soliq xavfini avtomatik baholashi, ehtimoliy huquqbuzarliklarni prognoz qilishi va inspektorlarga tayyor tahliliy xulosalarni taqdim etishi mumkin. Natijada inson omili ta'siri kamayadi, qaror qabul qilish tezligi oshadi va nazorat tadbirlarining aniqligi sezilarli darajada yaxshilanadi. Umuman olganda, kameral soliq tekshiruvlarini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligini xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Raqamli transformatsiya, ma'lumotlar integratsiyasi, risklarni boshqarish tizimining takomillashuvi, sun'iy intellekt va analitik platformalardan keng foydalanish nafaqat soliq tushumlarini ko'paytiradi, balki tadbirkorlik subyektlari uchun qulay va shaffof biznes muhitini yaratishga ham xizmat qiladi. Shu bois kameral nazorat tizimini muntazam takomillashtirib borish davlat moliyaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kameral soliq tekshiruvi O'zbekiston Respublikasida soliq nazoratining eng samarali va istiqbolli shakllaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, elektron hisobvaraqa-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari hamda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining joriy etilishi kameral nazoratning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qildi. Soliq qo'mitasining 2025-yil yakunlari bo'yicha statistik ma'lumotlari ham kameral tekshiruvlar natijasida katta miqdordagi soliq tafovutlari aniqlanayotganini va byudjet daromadlarini oshirishda ushbu nazorat shaklining muhim o'rin tutayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, amaliyot tahlili kameral tekshiruvlar tizimida ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatmoqda. Xususan, davlat organlari axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiyaning to'liq yo'lga qo'yilmaganligi, risklarni baholash mezonlarining barcha iqtisodiy jarayonlarni to'liq

qamrab olmasligi, ayrim tahliliy jarayonlarda inson omilining saqlanib qolayotgani hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasining yetarli emasligi kameral nazorat samaradorligini cheklovchi omillar hisoblanadi.

Kelgusida kameral soliq tekshiruvlarini takomillashtirish soliq nazoratining shaffofligini oshirish, soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilish, nazorat tadbirlarini optimallashtirish va davlat byudjeti daromadlarini barqaror ta'minlashning muhim shartlaridan biri bo'lib qoladi.

TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Risklarni baholash tizimini sun'iy intellekt asosida modernizatsiya qilish. Mashinaviy o'qitish (Machine Learning) va Big Data texnologiyalaridan foydalanish orqali soliq xavfini avtomatik prognoz qiluvchi algoritmlarni ishlab chiqish zarur.
2. Davlat axborot tizimlari integratsiyasini kengaytirish. Soliq organlari axborot tizimlarini banklar, bojxona, kadastr, statistika, Adliya vazirligi hamda boshqa davlat organlari bazalari bilan real vaqt rejimida o'zaro bog'lash maqsadga muvofiqdir.
3. Elektron nazorat vositalaridan foydalanishni kengaytirish. Elektron hisobvara-q-fakturalar, raqamli markirovkalash, elektron transport hujjatlari va onlayn nazorat-kassa mashinalari ma'lumotlarini yagona tahliliy platformaga integratsiya qilish zarur.
4. Profilaktik nazorat mexanizmlarini kuchaytirish. Kameral tekshiruv davomida aniqlangan tafovutlar bo'yicha soliq to'lovchilarga avtomatik elektron ogohlantirishlar yuborish va ularni mustaqil bartaraf etish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.
5. Soliq organlari xodimlarining malakasini oshirish. Raqamli iqtisodiyot, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va xalqaro soliq nazorati standartlari bo'yicha muntazam o'quv dasturlarini tashkil etish tavsiya etiladi.
6. Kameral tekshiruvlarning shaffofligini oshirish. Soliq to'lovchilar uchun shaxsiy kabinet orqali risk mezonlari, aniqlangan tafovutlar va tekshiruv natijalari haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiqdir.
7. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Kameral soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni xalqaro tajriba asosida muntazam ravishda yangilab borish zarur.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi kameral soliq tekshiruvlarining samaradorligini yanada oshirish, soliq xavflarini o'z vaqtida aniqlash, soliq to'lovchilarning ixtiyoriy soliq to'lash darajasini yuksaltirish hamda O'zbekiston Respublikasida zamonaviy, shaffof va raqamli soliq ma'murchiligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – O'RQ–599-son, 30.12.2019 (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: PF–60-son Farmon, 28.01.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF–5116-son Farmon, 18.07.2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va axborot tizimlarini rivojlantirishga oid qarorlar to'plami. – Toshkent, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. 2025-yil yanvar–iyun oylarida kameral soliq tekshiruvlari natijalari to'g'risida. – Toshkent, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. 2025-yil yakunlari bo'yicha soliq ma'murchiligi ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2026.
7. Bird R.M., Zolt E.M. Technology and Taxation in Developing Countries. – National Tax Journal, 2021.
8. James S., Nobes C. The Economics of Taxation: Principles, Policy and Practice. – 14th ed. – Birmingham: Fiscal Publications, 2022.
9. Turaboev I., Ergashev I. Tax monitoring in Uzbekistan: problems and issues // TSUL Legal Report. – 2022.
10. Tilabov N. Prospects for the use of digital technologies in securing tax revenues // Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022.